

TAXTAQORACHA DOVONI MALAKOFAUNASI

Orziyeva Y., Pazilov A., Muhammadiyev Z.

Guliston davlat universiteti

Annotation: The article found that 18 species of terrestrial molluscs were distributed in the Taxtakaracha pass, studied the density of distribution of 8 species in different biotopes, and found that the population density of *Xeropicta candacharica* and *Candaharia levanderi* species was high, revealing its causes.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin, mamlakatimizda olib borilayotgan zoologik tadqiqotlar ichida, faunistik ishlar, yanada muhim darajaga ko'tarildi. Chunki, antropogen kuchlar ta'siri natijasida tabiiy ekotizimlarda sodir bo'layotgan, transformatsiya jarayonida biologik xilma-xillikni saqlash muhim ahamiyatga ega.

Oxirgi yillarda bir qator faunistik (Pazilov, 2005, Saidov, 2008, Karimqulov, 2011, Abdulazizova, 2017, Qudratov, 2018) ishlar bajarilgan bo'lsada, biroq, biror bir kichik hududa olib borilgan faunistik tadqiqot aniq natijalar olish imkonini beradi.

Taxtaqoracha dovoni Zarafshon tog' tizmasida joylashgan bo'lib, uning dengiz sathidan o'rtacha balandligi 1670-1780 m tashkil etadi. Dovonning sharqiy qismi balandroq bo'lib, Chaqilikalon tog'i deb yuritiladi. Qoratepa tog'i g'arbga tomon pasayib borib, Zirabuloq va Ziyovuddin tog'lariga tutashadi. Dovonning relyef tuzilishi murakkab bo'lib, tabiatining mo'tadil xususiyati mollyuskalarning biologik xilma-xilligiga bevosita ta'sir etgan.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, Taxtaqoracha dovonida quruqlik mollyuskalarning quyidagi turlari: *Cochlicopa nitens*, *C.lubricella*, *C.lubrica*, *Vallonia costata*, *Vpulchella*, *Pupilla muscorum*, *Pseudonapaeus albiplicatus*, *Ps.sogdianaus*, *Leucozonella mesoleuca*, *Xeropicta candacharica*, *Monacha carthusiana*, *Deroceras laeve*, *D.caucasicum*, *Candaharia levanderi*, *C.roseni*, *Macrochlamys sogdiana*, *Zonitoides nitidus*, *Oxyloma elegans* tarqalgan bo'lib, ular hududlar bo'yicha notekis tarqalgan. Masalan, *Cochlicopa lubrica* Taxtaqoracha dovoni yaqinidagi Rus qishlog'i yaqinidagi Qashqadaryo daryosi chap irmog'i yaqinida tarqalib uning populatsiya zichligi 1 m² maydonda 9-10 ta uchraydi.

Dovonning janubiy yon bag'rida aholi tomorqalari va yo'l bo'ylarida *Xeropicta candacharica* turi tarqalgan bo'lib, uning populatsiya zichligi 1 m² da 50-60 ni tashkil qiladi.

Ps.sogdianaus yarim butali va butali o'simliklar orasidagi tosh uyumlari ostida va o'simliklar poyasida uchrab populyatsiyadagi zichlik ko'rsatgichi 10-15 taga teng.

Suv havzalariga yaqin joylashgan o'simlik orasida va ariq qirg'oqlari bo'yida *D. laeve*, *Candaharia levanderi*, turlari uchrab, ularning populyatsiyadagi zichligi bevosita namgarchilikka bog'liq bo'lib, namgarchilik yuqori bo'lgan yillari *Candaharia levanderi* ning populyatsiyadagi zichligi 45-55 tagacha bo'lishi qayd etildi.

M. sogdiana dovonning dengiz sathidan 1400-1600 m balandlikda yarim butalar ostidagi toshlar orasida yashab zichligi 10-12.

O. elegans turlarining populyatsiyasidagi zichlik biroz pastroq. Masalan, Rus qishlog'i atrofidagi ariq bo'ylaridagi o'tlar orasida 1 m² maydonda 2-3 uchraydi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra Taxtaqoracha dovoni turli biotoplarida quruqlik mollyuskalarning 18 turi uchrab, *Xeropicta candacharica* va *Candaharia levanderi* turlarning populyatsiyadagi zichligi eng yuqori bo'lib mos ravishda 50-60 va 45-55 ta ni tashkil qilishi aniqlandi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1.Абдулазизова Ш.К. Кўҳитанг тоғ тизмалари қуруқлик моллюскаларининг вертикал тақсимланиши // Актуальные вызовы современной науки: Сборник научных трудов. Вып.-6(14). Часть 3. - Переяслав-Хмельницкий (Украина), 2017. – С. 18-21.

2.Каримкулов А. Шимоли-ғарбий Туркистон тоғ тизмаси қориноёқли моллюскаларининг фаунаси, экологияси ва зоогеографияси: Автореф. дис....канд. биол.наук. - Ташкент, 2011. – 22б.

3.Кудратов Ж.А. Брюхоногие моллюски Нуратинских гор: таксономия, биологические особенности. Распространение и значение: Автореф. дис. ...доктора философии(PhD) по биол.наук. . – Ташкент, 2018. – 44 с.

4.Пазиллов, А. Биологическое разнообразие наземных моллюсков Узбекистана и сопредельных территорий (Doctoral dissertation, -Ташкент: ЎзРФА Зоол. инс., 2005.-40 с).

5.Сайдов М. Наземные моллюски юго-западной части Каржантауского хребта // Зоология ва гистологиянинг долзарб муаммолари. Республика илмий амалий конференция материаллари- Тошкент 2008 б.Б.59 – 61.

6. Orziyeva, Y., & Davronov, B. (2024). MOLLUSCAN FAUNA AND ECOLOGY OF MOUNTAIN KARATEPA. INTERNATIONAL JOURNAL OF EUROPEAN RESEARCH OUTPUT, 3(9), 73-77. 8. Orziyeva, Y. (2022). Water Molluscs Found in Some Water Basins of Kashkadarya Region. Miasto Przyszłości, 27, 145-148.

7.Orziyeva, Y. (2022). SUV MOLLYUSKALARINING PARAZITLARNING ORALIQ XO'JAYIN SIFATIDAGI ROLI. Евразийский журнал академических исследований, 2(6), 26-30.

8. Orziyevich, D. B. (2022). MOLLUSCS ARE INTERMEDIATE HOSTS OF HELMINTHS IN THE SOUTH OF UZBEKISTAN. Academia Globe: Inderscience Research, 3(04), 249-252.

-
-
9. Xosilova, G., & Ismoilova, G. (2021). MOLLYUSKALARINING TABIAT MUVOZANATIDAGI IJOBIY VA SALBIY AHAMIYATI. Scientific progress, 2(5), 397-400.
 10. kizi Norkobilova, Z. B., Rakhmatullayev, A. Y., & ogli Boyjigitov, O. D. (2023). PRELIMINARY INFORMATION ABOUT DRAGONFLIES FAUNA DISTRIBUTED IN KASHKADARYA REGION. World of Scientific news in Science, 1(3), 5-14.
 11. Bobonazarov, G.Y., Omonova, NR va Rabimova, ZS (2022). QO'YLARNING NOZOFARNETIK BO'YICHALARINI O'rganish Oestrus ovis L.(DIPTERA: OESTRIDAE). ZAMONAVIY DUNYODA FAN VA INNOVATSIYANING ROLI, 1 (1), 95-101.